

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MALAKALI KADRLARNI TAYYORLASHDA
TA'LIM SIFATINI OSHIRISH SAMARADORLIGI**

Axmedov Azizbek Ismoil o‘g‘li

Toshkent davlat transport universiteti magistri

Muratova Dildora Abdumannapovna

Toshkent davlat transport universiteti dotsent v.b.

Nazarova Nilufar Jo‘rayevna

Toshkent davlat transport universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Oliy o‘quv yurtlarida auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan holda qo‘llash samara beradi. Maqolada bo‘lajak mutaxassis kadrlarning kasbiy tayyorgarlik sifatini yaxshilash uchun o‘quv fanini didaktik jihatdan boyitib borishga ahamiyat qaratiladi.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim tizimi, axborot texnologiyalari, kompyuter texnologiyalari, avtomatlashtirilgan ta’lim, elektron darslik, tizimli yondashish, masofaviy ta’lim.

Bugungi kunda butun dunyoda ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ishlar tobora jadallahib bormoqda. Negaki, jamiyat rivoji va istiqboli ko‘p jihatdan kadrlarga bog‘liq ekan, albatta bunda ta’lim asosiy rol o‘ynashini e’tiborga olish lozimligini anglashga intilish tendensiyasi kuchaydi [3,4,5,6,7,8,9,10]. Shu jihatdan olib qaralganda ta’lim sifati va natijadorligiga erishish muhim hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyatini anglash uchun aynan shu nuqtai nazardan yondashgan holda kognitiv tahlil etish maqsadga muvofiq [11,12,13,14,15,16,17,18,19].

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan oliy ta’lim tizimi borasidagi islohotlar pirovard natijada oliy ta’lim sifatini oshirishga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Bu esa o‘z navbatida fuqarolik jamiyatini shakllantirishning yuksak talablari va e’tirof etilgan namunalarga javob beradigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, ta’lim tizimini tubdan isloh qilish va modernizatsiya jarayonlarini chuqurlashtirishda ilg‘or zamonaviy texnologiyalar, innovatsion ta’lim va tarbiya jarayonlarini tadqiq etishni taqazo etmoqda. Bu borada jahon tajribasi, xususan yuksak darajada taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasini inobatga olgan holda yondashish lozimligini ko‘rsatmoqdaki, bunda oliy ta’lim tizimida ta’lim sifatini nazorat qilish va baholash, ta’lim sifatini ta’minlash singari vazifalarning mazmun-mohiyatini falsafiy jihatdan tahlil va tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

Axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha jamiyatimizning tez sur’atlar bilan o‘sib boruvchi ehtiyojlarini e’tiborga olgan holda oliy o‘quv yurtlarida auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda elektron qo‘llanmalar,

virtual stendlar, masofaviy o'qitish hamda internet imkoniyatlaridan foydalanishning nazariy, amaliy, metodik jihatdan takomillashtirish muammolari dolzarbdir.

Hozirgi vaqtida O'zbekiston Respublikasida kompyuter texnologiyalari ta'lif jarayonining ajralmas qismiga aylandi, bu esa har bir ta'lif muassasasida axborot-ta'lif tizimini yaratish, muntazam takomillashtirib borish masalasini qo'yilmoqda. Bu tizim ham o'qituvchi, ham tarbiyachi rolini bajaradi va o'quv-amaliy maqsadidagi tezkor axborot manbaiga aylanadi. Uning vazifasi o'quv jarayonini texnik jihatdan boshqarish, o'qitishning sifat va miqdor ko'rsatkichlarini tahlil qilish va aniqlash, ta'lif samaradorligini ta'minlashdan iborat.

Toshkent davlat transport universitetida elektron modul, hemis platformasi asosida ma'ruza kurslari, mustaqil ishslash uchun topshiriqlar, topshiriqlarni mustaqil bajarish bo'yicha uslubiy materiallar, olingan bilimlarni tekshirishning shakllarini o'z ichiga qamrab olgan avtomatlashtirilgan ta'lif tizimi ishlab chiqilmoqda.

O'qituvchilar tomonidan ishlab chiqilgan ma'ruza kurslarida quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- kursning reja va dasturi;
- kursning ta'lif modeli;
- texnologik xaritasi;
- joriy oraliq, yakuniy nazorat usullari;
- asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati;
- ma'ruzalar matni.

Bularning ichida matnlarni zamonaviy axborot vositalaridan foydalanish asosida tuziladi: gipermatnlar, gipermehmon, multiplikatsiya. Bunda matnni rasmiylashtirishning o'ziga xosligiga, shuningdek, axborotni rangli qabul qilish tamoyili va o'quv materialini uzatishning ko'rgazmaliligiga alohida e'tibor beriladi.

Oliy ta'lif muassasalarida bugungi kunda kompyuterli o'qitish dasturlarining bir turi hisoblanadigan elektron darsliklarga nisbatan qiziqish katta. Xususan, elektron darslik – oddiy raqamlar va matnlar bilan ifodalangan darsliklardan farqli ravishda, fanga tegishli mavzularni dinamik ravishda, kishining diqqatini jalgan etuvchi turli ranglardan, multimedia, ya'ni audio va video animatsiyalaridan o'rinni foydalanib, tavsiya etuvchi darslik hisoblanadi. Elektron darslik pedagogik texnologiyalarning ichida alohida o'rinni egallagan bo'lib, uning an'anaviy darsliklarga nisbatan bir qator afzalliklari mavjud: qisqa vaqtida ko'p ma'lumot berish, talabalarning o'zlashtirish samaradorligi yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Elektron darslikda talaba bir vaqtning o'zida ham eshitadi, ham ko'radi. Ma'lum bo'lishicha, "Pedagog, psixologlarning fikrlariga ko'ra, inson eshitganda 5-10% ni eslab qolsa, ko'rish orqali 10-15% ni eslab qolar ekan. Agar bir vaqtning o'zida ham eshitib, ham ko'rsa, amalda bajarishda 50%dan ortiq ma'lumotni eslab qolar ekan" [1]. Elektron darslik aynan mana shu imkoniyatni yaratib beradi. Glossariylardan foydalanish xususiyatining mavjudligi. Elektron darsliklardagi glossariylar yangi atamalar bo'yicha istalgan joyda, tezkor izoh olish imkoniyatini

yaratadi. Talabalar o'zlashtirayotgan bilimlarini o'zlari tekshira olish imkoniyatining mavjudligi. Oddiy darsliklarda nazorat savollari mavjud bo'lib, talabaning o'zlashtirgan bilimini obyektiv tarzda baholay olish imkoniyatiga ega emas. Elektron darsliklar talabaning olgan bilimini nafaqat obyektiv baholaydi, balki, joiz bo'lganda kerakli mavzularni qayta tavsiya etishi, bir mavzuni to'liq o'zlashtirmay turib, boshqasiga o'tkazmasligi ham mumkin. Ma'lumotlarga operativ yangiliklarni va o'zgarishlarni kiritib borilishi. Elektron darslikka yangiliklar, o'zgarishlar istalgan paytda tezkorlik bilan kiritilishi mumkin.

O'quv fanini didaktik jihatdan loyihalashda tizimli yondashish (algoritm) bo'yicha ishni tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jumladan: maqsadga erishish bosqichlarini aniq belgilash, fanni o'rganishning maqsad va vazifalari aniqlash, egallanishi lozim bo'lgan bilimlar va ko'nikmalarning tuzilmasini, ekspertizadan o'tkazish (tekshirish, nazorat, baholash va diagnostika qilish) tuzilmasini, bilimlar va ko'nikmalarning invariant sikllarini, ishlab chiqish, o'qitishning invariant modullarini, o'qitish tuzilmasini, kompyuterlashtirilgan o'qitish majmuasining ishlash mazmunini, ma'ruza kursini, elektron darslik sifatida yaratiladigan kursning ssenariylarini ishlab chiqish, fanni o'rganish shakllari va vositalarini hamda usullar tizimini shakllantirish.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yilning 8 oktabrida "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida belgilangan ustuvor vazifalarning mohiyatini tahlil etadigan bo'lsak, bunda O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish asosiy maqsad sifatida belgilanganligini inobat olish lozim. Farmon maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni izchillik asosida amalga oshirib borish nazarda tutilgan. Bulardan ayrimlarini keltirib o'tishni joiz deb topdik: "oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish; xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish[2] kabi vazifalar shular jumlasidandir

Xulosa qilib aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda qo'llash natijasida:

- bo'lajak mutaxassis kadrlarning kasbiy tayyorgarlik sifatini yaxshilashga xizmat qiladi;
- o'quv mashg'ulotlarining samaradorligi va pedagoglar mehnatining foydali ish koeffitsiyentini oshiradi;

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

- ta’lim jarayonini axborotlashtirish shaxsning intellektual va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi;
- jamiyatning har bir a’zosini o’z malakasini oshirish va faoliyat sohasini o’zgartira olishi;
- tezkor ta’lim uchun shart-sharoit yaratish
- masofaviy ta’lim samarasini oshirish imkonini beradi.

REFERENCES:

1. Avliyoqulov X.N, Musayeva M. Pedagogik texnologiya. Darslik –Tafakkur-bo’stoni T.: 2012. 79-b.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06/19/5847/3887-son) www.lex.uz
3. Navruzbek Shuhrat O’G’Li Jurakulov, Umar Muxiddin O’G’Li Qurbonov, & Aqida Abdujabbarovna Dadashева (2022). YOSHLARNING HUQUQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING MUAMMOLARI. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 2), 312-315.
4. Темирова, С. В., & Назарова, Н. Ж. (2022). ЁШЛАРНИНГ ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТИНИ ЙОКСАЛТИРИШДА КОНСТИТУЦИЯНИНГ АҲАМИЯТИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 353-356.
5. Feruza Oy Kenja Qizi Abdinazarova, & Aqida Abdujabborovna Dadashева (2022). FUQAROLIK HUQUQI: O’ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YANGI KONSTITUTSIYASI VA XORIJIY DAVLATLAR KONSTITUTSIYALARIDA. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 2), 305-311.
6. Temirova, S. V., & Nazarova, N. J. (2022). YOSHLARNING RAQOBATBARDOSH KADR BO’LIB SHAKLLANISHIDA KONSTITUTSIYANING O ’RNI. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 349-352.
7. Харатова, Ш. Х., Назарова, Н. Ж., Абдукаримова, Г. Б., Рахимова, М. И., & Темирова, С. В. (2022). ВОЯГА ЕТМАГАН ЎСМИРЛАР БИЛАН ИШЛАШДА ОИЛА, МАҲАЛЛА, МАКТАБ ҲАМКОРЛИГИ МАСАЛАЛАРИ. *Uzbek Scholar Journal*, 11, 102-110.
8. Sheralevna, U. R., Juraevna, N. N., Baratovna, A. G., Vladimirovna, T. S., & Inamjanovna, R. M. (2022). EFFICIENT USE OF EDUCATIONAL OPPORTUNITIES TO ENSURE THE COMPETITIVENESS OF YOUTH. *Uzbek Scholar Journal*, 11, 97-101.

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

9. Samarov, R. S., & Rakhmonov, D. A. (2016). Social work activity in providing the life of the society (functional-structural analysis). *Theoretical & Applied Science*, (7), 14-16.
10. Muratova, D. A. (2018). PSYCHIC GENOCIDE OF RELIGIOUS VIEV IN ZIGMUND FREYD RESEARCHES. *Teoriya i praktika современной науки*, (3), 37-39.
11. Muratova, D. A., & Jumaniyazova, N. S. (2018). BERUNIY AND EUROPE. *Teoriya i практика современной науки*, (5), 24-26.
12. Sabirovna, A. N., & Juraevna, N. N. (2022). Important Aspects of the System of Social Work for Young People in Uzbekistan. *International Journal of Development and Public Policy*, 2(6), 37-41.
- 13 Abdusalamovna, A. S., & Juraevna, N. N. (2022). A Strong Family as a Determining Development of Society. *International Journal of Development and Public Policy*, 2(6), 31-36.
14. Рахмонов, Д. А., & Назарова, Н. Ж. (2022). ЎЗБЕКИСТОНДА ПЕДАГОГИК ХОДИМЛАРНИНГ ҲУҚУКИЙ МАҚОМИНИ БЕЛГИЛАШНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ АСОСЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 377-384.
15. Muratova, D. A. (2020). Socio-cultural directions of human transformation in the scientific development of uzbekistan. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(S1), 974-982.
16. Jo'rayevna, N. N. (2022). KADRLAR KASBIY SIFATINI TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOGIKANING O 'RNI. *PEDAGOG*, 1(4), 109-111.
17. Saminjon o'g'li, M. S., & Jo'rayevna, N. N. (2022). PEDAGOGIK FAOLIYATDA AXBOROT-KOMMUNIKATIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. *PEDAGOG*, 1(4), 105-108.
- 18 Nazarova, N. (2020). *YOSHLARDA RAQOBATBARDOSHLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI*. O'zMU Xabarları.
19. Temirova, S. V., & Nazarova, N. J. R. (2022). SIYOSIY DEMOKRATIK DAVLAT BARPO ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 357-360.
20. Muratova, D. A. (2022). Competence and Competency-Based Approach in Education. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 18.
21. Muratova, D. A. (2018). PSYCHIC GENOCIDE OF RELIGIOUS VIEV IN ZIGMUND FREYD RESEARCHES. *Teoriya и практика современной науки*, (3), 37-39.